

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	50
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
Xamidova Zarifa Urol qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	84
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	89
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	94
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	100
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN.....	105
Maxmudov Rahimjon	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH.....	109
Abduraxmonova Gulmira	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	114
Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
Tuychieva Odina Nabiyevena	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	140
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI.....	144
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	149
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	156
Odinayev Ravzatullo Asatulloevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Karimov Alibek Valievich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	167
Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLIISH ISTIQBOLLARI.....	173
Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI.....	179
Marqayev Xurshid Aliqulovich	
ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
Zaripova Sayohat Zafarovna	
XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	188
Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi	
BUXORO VILOYATI UY XO'JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOLI: SO'ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI.....	192
Nizomov Asliddin, Musulmonova Shahlo, Izzatullayeva Ma'mura	



UDK: 332.1:316.422(575.141)

BUXORO VILOYATI UY XO'JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOY-IQTISODIY AHVOLI: SO'ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI

Nizomov Asliddin Badriddinovich

BuxDTU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
Iqtisod fanlari doktori, professor,
Email: buhibhol@mail.ru
ORCID: 0000-0001-7765-1475

Musulmonova Shahlo Nasriddinovna

BuxDTU tayanch doktoranti
Email: musulmonovasahlo@gmail.com

Izzatullayeva Ma'mura Begmurod qizi

BuxDU sotsiologiya yo'nalishi talabasi
Email: mamuraizzatullayeva02@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Buxoro viloyatining 13 ta tuman va shahar hududlarida 366 nafar uy xo'jaligi boshlig'i ishtirokida o'tkazilgan keng qamrovli so'rovnoma natijalariga asoslanadi. Tadqiqot aholi bandligi, daromad manbalari, infratuzilma holati, tadbirkorlik faolligi, davlat yordami va ijtimoiy ehtiyojlar kabi muhim ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Olingan natijalar viloyat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy portretini ko'rsatib, davlat siyosatini takomillashtirish uchun muhim ma'lumotlar beradi.

Kalit so'zlar: uy xo'jaligi, hayot sifati, ijtimoiy-iqtisodiy holat, so'rovnoma, Buxoro viloyati, tadbirkorlik, infratuzilma, mehnat migratsiyasi, davlat yordami.

Abstract: This article is based on the results of a comprehensive survey conducted among 366 heads of households across 13 districts and cities of the Bukhara region. The study covers key indicators such as employment, sources of income, infrastructure conditions, entrepreneurial activity, government support, and social needs. The findings reveal the socio-economic profile of the population and provide important insights for improving public policy.

Keywords: household, quality of life, socio-economic conditions, survey, Bukhara region, entrepreneurship, infrastructure, labor migration, government support.

Аннотация: Данная статья основана на результатах комплексного опроса, проведённого среди 366 глав домохозяйств в 13 районах и городах Бухарской области. Исследование охватывает ключевые показатели, такие как занятость, источники доходов, состояние инфраструктуры, предпринимательская активность, государственная поддержка и социальные потребности. Полученные результаты отражают социально-экономический портрет населения и предоставляют важную информацию для совершенствования государственной политики.

Ключевые слова: домохозяйство, качество жизни, социально-экономическое состояние, опрос, Бухарская область, предпринимательство, инфраструктура, трудовая миграция, государственная поддержка.

KIRISH

Buxoro viloyati O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan muhim hududlaridan biri bo'lib, qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari rivojlangan. Viloyat aholisining turmush darajasini ilmiy-tahliliy asosda o'rganish ijtimoiy siyosatni shakllantirish uchun asosiy manba hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot 2025–2026-yillar davomida Buxoro viloyatining turli hududlarida yashovchi 366 nafar uy xo'jaligi boshlig'ini qamrab oldi. So'rovnoma 75 ta savoldan iborat bo'lib, respondentlarning demografik ko'rsatkichlari, ish bandligi, daromad manbalari, infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlari, tadbirkorlik intilishlari va davlatdan kutayotgan yordamlari haqida ma'lumot to'plandi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqot bir necha jihatdan muhim. Birinchidan, u O'zbekistonning hududiy haqiqatini, ya'ni poytaxtdan uzoqdagi qishloq va shaharcha hayotini bevosita aholining o'z tilidagi javoblari



orqali aks ettiradi. Ikkinchidan, tadqiqot faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanmay, aholining psixologik holati, kelajakka munosabati va davlatga ishonch darajasini ham o'lchagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda ijtimoiy siyosatni shakllantirishda yuqoridan pastga yo'naltirilgan (top-down) yondashuv an'anasi kuchli. Biroq zamonaviy ijtimoiy siyosat tadqiqotlari pastdan yuqoriga (bottom-up) yondashuvning samaradorligini ko'rsatmoqda: aholining o'z ehtiyojlarini to'g'ridan-to'g'ri ifodalashi siyosiy qarorlarning maqsadliligi va samaradorligini oshiradi (Ostrom, 1990; Evans, 2004). Mazkur so'rovnomamiz natijalari siyosat ishlab chiquvchilar uchun muhim empirik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ijtimoiy himoya dasturlarining «oxirgi mil» muammosi — ya'ni markaziy darajada belgilangan yordam haqiqiy foydalanuvchiga yetib bormasligi — rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tipik hodisa sifatida tadqiq etilgan (Pritchett va Woolcock, 2004). Infratuzilmaning iqtisodiy o'sishga ta'siri ham iqtisodiy adabiyotlarda keng hujjatlashtirilgan (Aschauer, 1989; Calderón va Servén, 2008). Tartibga solish muhitining murakkabligi kichik va o'rta tadbirkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi ham xalqaro tadqiqotlarda isbotlangan.

Musulmonova (2024) tomonidan o'tkazilgan oldingi tadqiqotlar O'zbekistonda kambag'allik darajasini qisqartirish yo'nalishlari va xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqqan. Mazkur maqola shu tadqiqotlarni mintaqaviy darajada konkret empirik ma'lumotlar bilan boyitadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tuman bo'yicha respondentlar taqsimoti: Buxoro shahri (86 kishi), Buxoro tumani (58), Kogon tumani (54), G'ijduvon tumani (29), Vobkent va Jondor tumanlari (25 tadan). Respondentlarning 339 nafari (92,6%) erkak, 27 nafari (7,4%) ayol bo'lgan. Asosiy qismi — 180 nafar 25–45 yoshda, 153 nafar 46–65 yosh oralig'iga to'g'ri keladi.

Ma'lumotlar tahlilida tanlovli statistik tahlil, chastota taqsimoti va o'zaro bog'liqlik usullari qo'llanildi. So'rovnomana natijalari tegishli adabiyotlar bilan taqqoslab o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'rovnomada jami 366 nafar uy xo'jaligi boshlig'i ishtirok etdi. Ularning 339 nafari (92,6%) erkak, 27 nafari (7,4%) ayol bo'lgan. Bu nisbat O'rta Osiyo mintaqasiga xos an'anaviy oila tuzilmasini aks ettiradi, bunda uy xo'jaligi boshlig'i vazifasini odatda erkaklar bajaradi.

Respondentlarning asosiy qismi — 180 nafari 25–45 yoshda, 153 nafari esa 46–65 yosh oralig'iga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichlar aholining mehnatga layoqatli va ijtimoiy jihatdan faol qatlami bilan ishlash imkonini beradi.

Respondentlarning ta'lim darajasi quyidagicha taqsimlandi:

Respondentlarning uchdan ikki qismi (67,7%) o'rta va o'rta maxsus ta'limga ega. Bu aholi o'rtasida kasbiy malaka oshirish va texnik ta'limga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatadi.

Respondentlarning 90,4% (331 nafar) turmush qurgan, 3,8% ajrashgan, 3,3% beva yoki beva ayol. O'rtacha oila a'zolari soni 5,6 nafarni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich nafaqat ko'p bolalilik an'anasini, balki keng oilada yashash madaniyatini ham ko'rsatadi.

So'rovnomada qatnashgan uy xo'jaliklarining 255 tasi (69,7%) qishloq hududlarida, 111 tasi (30,3%) esa shahar hududlarida yashaydi. Bu nisbat viloyatning qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan iqtisodiy tuzilmasini aks ettiradi.


Tuman bo'yicha respondentlar taqsimoti: Buxoro shahri (86 kishi), Buxoro tumani (58), Kogon tumani (54), G'ijduvon tumani (29), Vobkent va Jondor tumanlari (25 tadan).

So'rovnomana respondentlarning mehnat bozorida turlicha ishtirok etishini ko'rsatdi. Xizmat ko'rsatish sohasida (sog'liqni saqlash, ta'lim, savdo, davlat xizmatlari) band bo'lganlar umumiy sonning 39,6%ni tashkil etdi (145 kishi). Ishlab chiqarish sohasida bandlar 15,0%ni tashkil etdi (55 kishi).

Xorijda ishlab yurgan respondentlar soni 62 nafar (16,9%) bo'lib, bu viloyatda mehnat migratsiyasining yuqori darajasini ko'rsatadi. Vaqtincha ishsizlar 36 nafar (9,8%), nafaqaxo'rlar esa 29 nafar (7,9%)ni tashkil etdi (1-rasm).

10. Oila boshlig'ining bandlik holati

366 ответов




1-rasm. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati va moliyaviy savodxonligini o'rganish bo'yicha so'rovnomaning 10-savol natijalari

Respondentlarning asosiy daromad manbai ish haqi hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatidan daromad oluvchilar ham sezilarli ulushni tashkil etadi. Pensiya va nafaqadan kun ko'ruvchilar aholining muhtoj qatlamini belgilaydi.

Oilaviy xarajatlarni qoplashdagi qiyinchilik darajasi so'rovida (1 – juda oson, 5 – juda qiyin) kommunal xarajatlar 1,89 ball, kiyim-kechak 1,95 ball, transport 1,83 ball, dori-darmon 1,94 ball va ta'lim xarajatlari 2,07 ballni oldi. Bu ko'rsatkichlar aholining asosiy ehtiyojlarini qoplashda nisbatan qiyinchilik sezayotganini bildiradi (2-rasm).

16. Quyidagi xarajatlarni qoplashda qiyinchilik darajangiz (1-juda oson, 5-juda qiyin):



2-rasm. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati va moliyaviy savodxonligini o'rganish bo'yicha so'rovnomaning 16-savol natijalari

Mehnat migratsiyasining ikki tomonlama iqtisodiy ta'sirini nazariy jihatdan tahlil qilish muhim. Qisqa muddatda pul o'tkazmalari (remittanslar) uy xo'jaliklarining iste'mol darajasini ko'tarib, mahalliy talab va xizmat sektorini qo'llab-quvvatlaydi. Biroq uzoq muddatli perspektivada mehnat migratsiyasi mahalliy insoniy kapital zahirasining kamayishiga olib kelishi mumkin — «miya oqishi» (brain drain) hodisasining mintaqaviy ko'rinishi sifatida. Shuning uchun migratsiya siyosatini faqat chiquvchi oqimni cheklash emas, balki qaytib keluvchi migrantlarni tadbirkorlik va mahalliy ishlab chiqarishga yo'naltiruvchi mexanizmlar yaratish orqali shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Respondentlar o'z hududlaridagi infratuzilmani 5 ball tizimida baholadilar. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval):



1-jadval.

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati va moliyaviy savodxonligini o'rganish bo'yicha so'rovnomaning 25-savol natijalari

Infratuzilma turi	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli		
Elektr energiya ta'minoti	(13,7%) 50	(52,5%) 192	(27,6%) 101	2	3 (6,3%)
Gaz ta'minoti	(10,1%) 37	(45,6%) 167	(26,2%) 96	5	6 (15,3%)
Toza ichimlik suvi	(15,6%) 57	(46,2%) 169	(27,0%) 99	4	1 (11,2%)
Transport xizmati	(12,6%) 46	(46,2%) 169	(30,6%) 112	3	9 (10,7%)
Yo'l holati	(8,5%) 31	(44,3%) 162	(34,2%) 125	4	8 (13,1%)
Aloqa va internet	(12,8%) 47	(47,5%) 174	(29,0%) 106	3	9 (10,7%)

Infratuzilma holati bo'yicha eng zaif sohalar yo'l holati (13,1% qoniqarsiz baho) va gaz ta'minoti (15,3% qoniqarsiz) hisoblanadi. Elektr energiyasi va aloqa xizmatlari nisbatan yuqori baho oldi. Infratuzilmaning iqtisodiy o'sishga ta'siri iqtisodiy tadqiqotlarda keng hujjatlashtirilgan (Aschauer, 1989; Calderón va Servén, 2008). Yo'l infratuzilmasini yaxshilash mahsulot tashish xarajatlarini kamaytiradi, bozorga kirish imkoniyatini kengaytiradi va ish o'rinlari yaratilishini rag'batlantiradi. So'rovnomada yo'l holati bo'yicha «qoniqarsiz» bahosi 13,1 foizga yetishi qishloq hududlaridagi iqtisodiy faollikning to'liq ro'yobga chiqmasligini ko'rsatadi. Shu sababli qishloq transport infratuzilmasiga sarmoya ijtimoiy xarajat sifatida emas, balki iqtisodiy rentabelligi yuqori investitsiya sifatida baholanishi lozim.

Qishloq hududida yashovchi respondentlar uchun tuman markaziga masofa bir necha o'n kilometrgacha yetib boradi. Oilaviy poliklinika va maktabgacha ta'lim muassasalariga masofa nisbatan kichik (odatda 0,5–5 km), ammo oliy ta'lim muassasasiga masofa ko'pincha 20–60 km ni tashkil etadi (2-jadval).

2-jadval.

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati va moliyaviy savodxonligini o'rganish bo'yicha so'rovnomaning 30-savol natijalari

Biznes ochishga munosabat	Soni	Ulush
Juda xohlayman va rejam bor	127	34,7%
Xohlayman, lekin qanday boshlashni bilmayman	71	19,4%
O'ylab ko'rmaganman	67	18,3%
Xohlayman, lekin mablag' yetmaydi	54	14,8%
Xohlamayman	30	8,2%

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, respondentlarning 68,9% (252 nafar) biznes ochishni xohlaydi yoki bunga qiziqadi. Bu aholining tadbirkorlikka yuqori moyilligini bildiradi.

Tadbirkorlikni boshlashga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar bo'yicha savolga respondentlarning javoblari quyidagicha bo'lgan (3-jadval).

3-jadval.

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati va moliyaviy savodxonligini o'rganish bo'yicha so'rovnoma natijalari

Tadbirkorlikni boshlashga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar	Soni	Ulush
Boshlang'ich kapital yetishmaydi	127	34,7%
Hech narsa to'sqinlik qilmaydi	104	28,4%
Bilim va ko'nikma yetmaydi	54	14,8%
Davlat tartib-qoidalari murakkab	34	9,3%

Tadbirkorlikni boshlashga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar	Soni	Ulush
Bozorni bilmayman	29	7,9%

Moliyaviy resurslarning yetishmasligi — eng katta to'siq. Bu davlat tomonidan kichik biznesga kreditlash va subsidiya berishni kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tartibga solish muhitining murakkabligi kichik va o'rta tadbirkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi xalqaro tadqiqotlarda isbotlangan. Ushbu so'rovnoma davlat tartib-qoidalarini to'siq deb ko'rsatgan respondentlar ulushi (9,3%) nisbatan past ko'rinsa-da, bu 34 nafar potensial tadbirkor qo'shimcha ish o'rinlari va soliq daromadlari yaratishga qodir bo'lgan shaxslardir. Biznesni ro'yxatdan o'tkazish tartiblarini soddalashtirish, birinchi uch yil uchun soliq imtiyozlarini joriy etish va elektron hukumat xizmatlarini kengaytirish bu to'siqni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Ta'lim va malaka oshirish sohasidagi savollar bo'yicha berilgan javoblar natijasiga ko'ra respondentlar quyidagi sohalarni o'rganishga qiziqish bildirdi: tadbirkorlik (74 kishi), til o'rganish (55 kishi), moliyaviy savodxonlik (28 kishi), zamonaviy texnologiyalar (16 kishi), hunarmandchilik (turli ko'rinishlarda). Bu ma'lumotlar kasbiy tayyorgarlik markazlari va o'quv dasturlarining yo'nalishini aniqlashda qo'l keladi.

Ta'lim olish yoki malaka oshirish istagiga nisbatan respondentlarning 59,6% aniq rejasi bor, 16,1% esa "bilim olishni xohlaydi, lekin qanday boshlashni bilmaydi" deb javob berdi.

So'rovnoma davlatdan yordam olish masalasida muhim natijalarni ko'rsatdi. Respondentlarning 267 nafari (72,9%) umuman hech qanday davlat yordami olmagan. Kredit yoki subsidiya olganlar 53 nafar (14,5%), moddiy yordam olganlar 18 nafar (4,9%), ta'lim dasturida qatnashganlar esa 12 nafar (3,3%)ni tashkil etdi.

Ijtimoiy himoya dasturlarining «oxirgi mil» muammosi — ya'ni markaziy darajada belgilangan yordam haqiqiy foydalanuvchiga yetib bormasligi — rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tipik hodisa sifatida tadqiq etilgan (Pritchett va Woolcock, 2004). Ushbu so'rovnoma davlat yordami olmagan 72,9 foizlik ko'rsatkich bir necha omilni aks ettirishi mumkin: axborot yetishmasligi (aholi dasturlar mavjudligidan xabarsiz), ma'muriy to'siqlar (hujjatlashtirish talablari), geografik cheklovlar (qishloq hududlarda xizmat ko'rsatish tarmog'ining siyrakligi) yoki maqsadlilik mezonlarining noto'g'ri belgilanishi. Ushbu omillarni aniqlash va bartaraf etish ijtimoiy xarajatlar samaradorligini tubdan oshirish imkonini beradi.

Kredit yoki subsidiya olganlar bu mablag'ni asosan kundalik ehtiyojlarga sarf qilgan. Faqat bir qismi biznesni boshlashga investitsiya sifatida yo'naltira olgan. Bu moliyaviy savodxonlik va yordamni maqsadli sarflash bo'yicha qo'shimcha ko'mak zarurligini ko'rsatadi.

Respondentlar davlatdan qanday yordam kutayotgani haqida quyidagicha fikr bildirdi (4-jadval):

4-jadval.

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati va moliyaviy savodxonligini o'rganish bo'yicha so'rovnomaning 37-savol natijalari

Kutilayotgan yordam turi	Soni	Ulush
Hech narsa kutmayman	110	30,1%
Ish haqlarini oshirish, narx-navoni tartibga solish	60	16,4%
Ish o'rinlari yaratish	25	6,8%
Ta'lim imkoniyatlari	21	5,7%
Moddiy yordam (nafaqa, stipendiya)	21	5,7%
Biznes ochishda yordam	18	4,9%

E'tiborli jihat shundaki, respondentlarning 30,1% davlatdan hech narsa kutmaydi — bu aholining bir qismida o'z kuchiga ishonch yuqori ekanini, ammo bir vaqtning o'zida umidsizlik yoki davlat yordamiga ishonchsizlik ham borligini ko'rsatadi. Ish haqi va narx-navo masalasi makroiqtisodiy siyosat bilan bevosita bog'liq. Nominal ish haqining o'sishi inflyatsiya darajasidan past bo'lganda, aholi real xarid quvvati kamayadi va hayot sifati tushadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda kuzatilgan inflyatsiya bosimi (Statistika qo'mitasi ma'lumotlari bo'yicha 2022–2024-yillarda yillik inflyatsiya 10–12% atrofida) daromadlarning xarid quvvatini sezilarli darajada eroziyaga uchratgan. Shu sababli aholining ish haqi va narx tartibga solish bo'yicha talab bildirishi obyektiv iqtisodiy asosga ega va bu ko'rsatkich sifatida real ish haqi dinamikasini monitoring qilish zaruriyatini ko'rsatadi.

Salomatlik va ijtimoiy holat tahliliga keladigan bo'lsak, respondentlarning aksariyati — 274 nafar (74,9%) — oila a'zolari sog'lig'ida muammo yo'qligini bildirdi. 33 nafar (9%) surunkali kasalliklari, 23 nafar (6,3%) yuqori darajadagi stress, 21 nafar (5,7%) esa oilasida nogironlik holatlari borligini aytdi.

O'z-o'zini baholash va kelajak rejaları borasidagi savollarga respondentlar quyidagicha javob berishgan: respondentlarning 48,4% (177 nafar) o'zlarini mustaqil yashay oladigan deb hisoblaydi, 32,5% (119 nafar)



qisman yordamga muhtojligini bildirdi. 5,7% (21 nafar) esa doimiy yordamga muhtoj.

Kelajak istiqbollariga nisbatan respondentlarning 59,6% aniq reja mavjudligini, 16,1% esa “ha, lekin qanday qilishni bilmayman” deb javob berdi. Bu umidli ko‘rsatkich bo‘lib, aholi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini yaxshilashga tayyor.

So‘rovnoma da respondentlarning moliyaviy rejalashtirish odatini baholash uchun maxsus savollar berildi. Katta qismi “doimo rejalashtirib, hisob-kitob qilaman” deb javob berdi. Bu ko‘rsatkich aholining moliyaviy savodxonlikka moyilligini ko‘rsatadi, ammo amaliy bilimlar va vositalar yetishmasligi muammosi saqlanib qolmoqda.

Oilaviy budjetning asosiy tarkibini oziq-ovqat xarajatlari (o‘rtacha 1–3 million so‘m), kommunal to‘lovlar, transport va ta‘lim xarajatlari tashkil etadi. Ko‘plab oilalar uchun sog‘liqni saqlash xarajatlari kutilmagan moliyaviy og‘irlik yaratadi.

So‘rovnoma natijalarini faqat alohida raqamlar sifatida emas, balki yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida o‘qish kerak. Bu tizimda bir nechta fundamental ziddiyat ko‘zga tashlanadi. Birinchi ziddiyat — yuqori tadbirkorlik intilishi va past institutsional qo‘llab-quvvatlash o‘rtasidagi farq. Aholi 68,9% darajasida tadbirkorlikka moyil — bu hatto rivojlangan iqtisodiyotlarda ham katta ko‘rsatkich. Ammo bu salohiyat o‘z-o‘zidan realizatsiyaga aylanmaydi. Aynan kapital yetishmasligi, bilim taqchilligi va murakkab tartiblar — bu uchta omil birgalikda qo‘llar bog‘langandek ta‘sir qiladi. Ikkinchi ziddiyat — mehnat migratsiyasining qisqa muddatli va uzoq muddatli oqibatlarini o‘rtasidagi qarama-qarshilik. Qisqa muddatda xorijiy pul o‘tkazmalari oilani boqadi, infratuzilmaga investitsiya qiladi. Uzoq muddatda esa bu viloyatning insoniy kapitalini, ya‘ni eng faol va bilimli qatlamini “eksport” qilishga olib keladi.

Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi nuqtayi nazaridan Buxoro viloyati iqtisodiyoti “ikki tezlikli” model belgilarini namoyon etmoqda: bir tomondan, daromad va iste‘molni qo‘llab-quvvatlovchi mehnat migratsiyasi va remittanslar; boshqa tomondan, mahalliy ishlab chiqarish va qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarning nisbatan zaif rivojlanganligi. Bunday tuzilmadan barqaror va inklyuziv o‘shishga o‘tish uchun mahalliy qiymat zanjirlarini (value chains) shakllantirish — ya‘ni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, mahalliy xizmatlar va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish — zaruriy strategik yo‘nalish hisoblanadi. Buning uchun esa tashqi shok va migratsiya oqimlariga muvofiqlashuvchi (adaptive) hududiy iqtisodiy siyosat ishlab chiqish talab etiladi. Uchinchi ziddiyat — aholining davlatga yuqori talab va past ishonch o‘rtasidagi holatida namoyon bo‘ladi. Respondentlarning 72,9% yordam olmagan, 30,1% esa hatto umid ham qilmayapti.

So‘rovnoma natijalarining ijtimoiy mazmuni eng quyidagicha umumlashtirilishi mumkin: Buxoro viloyati aholisi katta iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatga ega, kelajakka umid va xohish bor, ammo ushbu salohiyat o‘zini namoyon etishi uchun zarur institutsional va moliyaviy shart-sharoitlar hali to‘liq shakllanmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So‘rovnomadadan kelib chiqadigan asosiy xulosalar va muallif tavsiyalari quyidagicha tizimlashtirilib taqdim etiladi (5-jadval):

5-jadval. Buxoro viloyatida aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, ularning empirik ko‘rsatkichlari va taklif etilayotgan siyosiy yechimlar tizimi

Muammo	So‘rovnoma ko‘rsatkichi	Tavsiya
Kapital yetishmasligi	34,7% – asosiy to‘siq	Mikrokreditlar va startap grantlarini kengaytirish
Davlat yordami yetib bormaydi	72,9% yordam olmagan	Ijtimoiy himoya tizimini manzillilashtirish
Bilim va malaka taqchilligi	14,8% – ikkinchi to‘siq	Kasbiy ta‘lim markazlarini rivojlantirish
Yo‘l va gaz infratuzilmasi	15,3% va 13,1% qoniqarsiz	Qishloq infratuzilmasiga ustuvor sarmoya
Mehnat migratsiyasini boshqarish	16,9% xorijda ishlaydi	Qaytib kelganlar uchun biznes muhiti yaratish
Ruhiy sog‘liq xizmatlari	6,3% yuqori stress	Qishloq darajasida psixologik xizmat

So‘rovnoma natijalarini umumlashtirgan holda quyidagi ilmiy xulosani keltirish mumkin: Buxoro viloyati aholisi iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati yuqori bo‘lgan, kelajakka rejali va tadbirkorlikka moyil demografik tuzilmaga ega. Biroq ushbu salohiyatning to‘liq ro‘yobga chiqishiga uchta institutsional to‘siq — moliya (kapitalga kirish imkoni), bilim (malaka va axborot yetishmasligi) va infratuzilma (transport va kommunal xizmatlar) — to‘sqinlik



qilmoqda. Agar siyosat asboblari aynan shu uchta to'siqni maqsadli ravishda bartaraf etishga yo'naltirilsa, viloyat iqtisodiyotining multiplikativ o'sishi uchun haqiqiy zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nasriddinova, M. S. (2024). Special directions of poverty reduction in the regions. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(3), 847-852.
2. Nasriddinova, M. S. (2024). O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA DOIR "MILLIY MODEL" VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 316-320.
3. Shahlo, M., & Aziza, T. (2023). External Labor Migration and Informal Employment: Situation, Problems and Their Causes. *European Journal Of Business Startups And Open Society*, 3(12), 45-50.
4. Musulmonova, S. (2024). Mintaqalarda Kamg'allik Darajasini Pasaytirish Va Xorij Tajribasidan Foydalanish Yo'llari. *Green Economy and Development*, 2(3), 663480.
5. Shahlo M., Mirkomil H. ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA INSON KAPITALINING ROLI VA AHAMIYATI // *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*. – 2025. – T. 8. – №. 6. – C. 54-60.
6. Musulmonova, S. (2024). Buxoro Viloyatida Kambag'allikni Bartaraf Etish Va Bandlikni Oshirish Yo'nalishida Hududlar Kesimida Mavjud Imkoniyatlar Tahlili. *Green Economy and Development*, 2(1), 664754.
7. MUSULMONOVA, S. CHRISTOPHER ANTONIOU PISSARIDES' RESEARCH ON POVERTY AND LABOR MARKETS AND PRACTICAL RECOMMENDATIONS FOR APPLICATION IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN. *ЭКОНОМИКА*, 247-252.
8. Nasriddinova, M. S. (2024). O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA DOIR "MILLIY MODEL" VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 316-320.
9. Turobova, H., & Musulmonova, S. (2025). INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA KREATIVLIK QOBILİYATLARINI RAG'BATLANTIRISH: JAHON TAJRIBASI TAHLILI. *Marketing Jurnal*, (5).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100